INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
Volume 1,issue 1,2023

KREDITOR VA QARZ OLUVCHI O‘RTASIDA KREDIT BERISH YOKI UNI OLISHDAN BOSH TORTISHDAN KELIB CHIQUVCHI MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti talabasi
E-mail: xolisxonumarova3@gmail.com

Annotatsiya: Har bir jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishi bevosita ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mehnat omillari ta’minlaydi. Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta’minlanishida kreditning o‘rni beqiyosdir. Chunki ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekti o‘z faoliyatini kengaytirish yoki zamonaviy uskunalar sotib olish uchun unga albatta mablag‘ kerak bo‘ladi. Agarda, uning o‘zida yetarlicha mablag‘ bo‘lmasa, kredit tashkilotlariga murojaat qilish orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Mazkur maqolada banklar va kredit tashkilotlari tomonidan kredit berishdan, shuningdek, qarz oluvchi tomonidan kredit olishdan qisman yoki butunlay voz kechish sabablari va uning huquqiy oqibatlari borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kreditor (qarz beruvchi), qarz oluvchi (mijoz), kredit, kredit tarixi, qisman yoki butunlay bosh tortish.

Abstract.

The main activity of every society is producing. Continuity of the production process is ensured by material and labor factors. Credit has an incomparable role in providing production in parallel with these factors. Because a business entities engaged in this activity will definitely need funds to expand their activities or purchase modern equipment. If they do not have enough funds, they can meet their needs by applying to credit organizations. This article discusses the reasons for partial or complete refusal of loans by banks, as well as the borrower’s refusal to receive loans, and its legal consequences.

Key words: creditor (lender), borrower (client), credit, credit history, partial or total refusal

KIRISH

Ma’lumki, kredit - qarz munosabatlarining alohida, mustaqil ko‘rinishi hisoblanadi. Kredit tushunchasiga manbalarda quydagicha ta’rif berilgan, ***kredit*** - bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir[1].

Bundan bilishimiz mumkinki, kredit deyilganda, bo‘sh turgan pul mablag‘larini aylantirsh va ulardan daromad olish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga vaqtinchalikka berish tushuniladi.

Kredit obyekti - bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan kreditor (qarz beruvchi)ga qaytib beriladigan qiymatdir.

Kredit predmenti- kreditor tomonidan shartnomada ko‘rsatilgan fozilar miqdorida pul mablag‘larini qarz oluvchiga berish, o‘z navbatida qarz oluvchi esa olingan pul mablag‘ini belgilangan foizlar va muddatlarda qaytarish majburiyati.

[1] Absamatov A.E. (2022). KREDITNING MOHIYATI VA ZARURLIGI. Экономика и социум, (12-1 (103)), 36-39.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda bankdan kredit olish tizimi takomillashishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kredit olish oddiy holatga aylandi. Agarda bizga ma'lum ehtiyojlar uchun mablag' kerak bo'lsa, kerakli miqdorni olish uchun bankka murojaat qilishimiz kifoya. Ammo ba'zida biz bankning hech qanday sababsiz kredit berishdan bosh tortishiga duch kelishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 746-moddasida bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor)ning kredit berishdan bosh tortish asoslari keltirilgan. Unga ko'ra, kreditor qarz oluvchini to'lovga qobiliyatsiz deb hisoblasa, qarz oluvchi kreditni ta'minlash majburiyatlarini bajarmasa, shartnomada nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli deyilgan. Demak, kreditor kredit berishdan butunlay yoki qisman voz kechishi mumkin. Buning uchun fuqarolik kodeksining 746-moddasida ko'rsatilgan asos bo'lishi kerak. Aynan shu qoida Rossiya Federativ Respublikasi Fuqarolik kodeksining 821-moddasida ham aynan nazarda tutilgan bo'lib, unda ham kredit oluvchining kreditni qaytaraolmasligi aniq ko'rinib turgan bo'lsa, unga kredit berishni rad etish mumkin ekanligi belgilangan[2].

Odatda, kredit shartnomasi tuzishdan oldin bankning qarz oluvchining kreditni qaytarish imkoniyati va moliyaviy sharoitini aniqlash bo'yicha ishlar olib boriladi. Buning uchun qarz oluvchi ma'lum bir hujjatlar ro'yxatini bankka taqdim etishi kerak bo'ladi. Tekshiruv o'tkazilgandan so'ng bank yoki kredit tashkiloti tomonidan kredit berish yoki kredit berish rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Shubhasiz, kreditor ijobiy qaror qabul qilsa, tomonlar kredit shartnomasini tuzishi mumkin.

Qarz oluvchining kreditni to'lay olishligini baholash kredit tashkilotining bevosita majburiyati emas, biroq mavjud huquqiy hujjatlarda kredit tashkilotiga bu masalaga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Agar kredit qobiliyati bankni qanoatlantirsa, u holda kredit shartnomasini tuzish uchun ijobiy qaror qabul qiladi. Shundan kelib chiqib, kredit shartnomani tuzishdan oldin qarz oluvchi tekshirib chiqiladi, kredit olish bo'yicha arizada ko'rsatilgan yoki kredit tashkilotiga boshqa manbadan ma'lum bo'lgan faktlar taqdim etiladi, shartnoma tuzguncha yuz bergan yoki kredit tashkiloti xodimlari tomonidan shartnoma tuzishdan oldin bilishi yoki tahlil qilishi kerak bo'lgan faktlar Fuqarolik kodeksining 746-moddasiga muvofiq kredit taqdim etishdan bosh tortishga sabab bo'la olmaydi.

Kreditor kredit berishdan bosh tortish huquqidan shartnoma tuzilgandan to qarz summasi to'liq yoki qisman berilgunga qadar foydalanishi mumkin. Qarz to'liqberilgandan so'ng kreditorning bu huquqdan foydalanishi o'z kuchini yo'qotadi. Shunga qaramay, qarz oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzgan taqdirda kreditor shartnoma bo'yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to'xtatishga haqli.

Har bir bank kredit berish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilishda o'zining ichki tartib-qoidalarini belgilash huquqiga ega. Shuning uchun ham bank va boshqa kredit tashkilotlari

---

[2] Гражданский кодекс Российской Федерации часть 2 (ГК РФ ч.2) 26 января 1996 года N 14-ФЗ

tomonidan mijozga kredit berishdan bosh tortishining sabablari turli xilbo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda kreditorlar tomonidan kredit berishdan bosh tortishining eng keng tarqalgan sabablari quydagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi Qonunida “kredit tarixi” haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, kredit tarixida qarzdorning so‘nggi besh yil ichidagi majburiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olib, u:

kredit axboroti subyektini identifikatsiyalash imkonini beradigan;

kredit axboroti subyektining kredit bitimlari to‘g‘risidagi, shuningdek ularning ijro etilishi holati haqidagi;

kredit axboroti subyektining fuqarolik-huquqiy shartnoma bo‘yicha pul summasini to‘lash majburiyatlari to‘g‘risidagi;

kredit tarixini shakllantirish sanasi to‘g‘risidagi, shuningdek kredit tarixini shakllantirgan kredit byurosi haqidagi ma’lumotlarni olishi kerak.

Kredit tarixiga kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq boshqa ma’lumotlar ham kiritilishi mumkin[3].

Bank tomonidan mijozning to‘lov tarixini tahlili va hisobotlari orqali mijozning kredit tarixidagi barcha kredit majburiyatlari haqida ma’lumotlar o‘rganiladi: mijoz qayerdan, qachon qarz olgan keyinchalik uniqanday to‘lagani, birgalikda qarz oluvchi va kafil bo‘lganmi va mijoz to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlar aks ettiriladi. Bank mijozning oldingi kreditini to‘lash muddatini kechiktirayotgan yoki to‘lov amalga oshiriladigan muddatni o‘tkazib yuborganbo‘lsa, bank mijozga kredit berishdan bosh torishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir bankdan qarz oluvchi mijoz bankka murojaat qilishdan oldin, kredit tarixini tekshirib ko‘rishi va qarzi yo‘qligiga ishonch hosil qilishi lozim.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’mol krediti to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra,iste’mol krediti berish qoidalariga muvofiq iste’molchi iste’mol krediti olish uchunkredit buyurtmasini va o‘z daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan boshqa hujjatlarni iste’mol krediti beruvchi tashkilotga taqdim etadi. Shuningdek, iste’molchining daromadlari hajmi va shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilishining iste’molchi tomonidan taqdim etilgan ta’minoti iste’mol krediti summasini qaytarish va mazkur kredit bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash uchun yetarli bo‘lishi kerak[4].

Demak, **birinchidan,** mijoz bankka kredit so‘rab murojaat qilishdan oldin o‘zining rasmiy ish joyiga yoki daromad manbaiga ega bo‘lishi kerak. **Ikkinchidan**, bank kredit arizasi va kredit tarixini tahlil qilib, iste’molchining qarzlari bor yoki yo‘qligini tekshirib, qarz yukini baholay olishi lozim. Qarz yuki deyilagnda esa, qarz oluvchining barcha kreditlari bo‘yicha to‘lovlar miqdorining (shu jumladan mijoz olmoqchi bo‘lgan yangi kredit bo‘yicha ham) uning o‘rtacha oylik daromadiga nisbati tushuniladi.

Kreditor qarz oluvchi to‘lov qobiliyatiga ega emas deb e’tirof etilgan, kreditshartnomasi shartlarini bajarmagan hollarda unga kredit berishdan bosh tortishi mumkin. Lekin qonunchilikda kreditorning yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlaridan kreditni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish, ya’ni kredit shartnomasidan bir tomonlama bosh tortish huquqi kredit munosabatlari uchun alohida tartibga solinmagan. Shundan kelib chiqib hamda kreditorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida 746-modda “Kreditor qarz oluvchining to‘lov qobiliyatiga ega emasligi, kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganligi, kreditni maqsadli ishlatish yuzasidan shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni buzganligi

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi Qonuni. 11.08.2011
[4] O‘zbekiston Respublikasining “Iste’mol krediti to‘g‘risida”gi Qonuni. 06.05.2006.

qonunda belgilangan tartibda isbotlangan holatlarda kredit mablag‘larini to‘laligicha yoki qismlarga bo‘lingan ravishda muddatidan oldin qaytarilishini talab qilishga haqlidir” mazmunidagi yangi qism bilan to‘ldirilmoqda. Hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan beriladigan iste’mol kreditlari va valyuta krediti bilan bog‘liq maxsus normalarni kiritish maqsadida, yangi fuqarolik kodeksi loyihasi ikkita yangi – “Iste’mol krediti” va “Valyutada kredit” deb nomlangan moddalar bilan to‘ldirilmoqda.

Amaldagi Fuqarolik kodeksining 744-moddasida kredit munosabatlariga nisbatan 1-paragraf, ya’ni qarz to‘g‘risidagi qoidalar qo’llanishi belgilangan. Shuning uchun ham amaliyotda kreditni muddatdan avval qaytarib olishda qarz munosabatalriga bag‘ishlangan 736-modda qoidalari qo‘llanib kelingan. Unga ko‘ra, agar qarz shartnomasini qarzni qismlab (bo‘lib-bo‘lib) qaytarish nazarda tutilgan bo‘lsa, qarz oluvchi qarzning navbatdagi qismini qaytarish uchun belgilangan muddatni buzgan taqdirda, qarz beruvchi qarzning qolgan barcha summasini tegishli foizlar bilan birga bmuddatidan oldin qaytarishni talab qilishga haqli. Yangi fuqarolik kodeksi esa kredit uchun ham ayni shu qoidani alohida tartibini belgilaydi.

“Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minlash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida” gi 13/150-sonli Oliy sud plenum qarorining 12-bandida “Kredit shartnomasi shartlarining kredit tashkiloti tomonidan buzilganligi munosabati bilan yuzaga kelgan zararni undirish yuzasidan qarz oluvchilarning da’volari bo‘yicha nizolarni ko‘rishda sudlar shuni inobatga olishlari lozimki, majburiyatlar buzilishi oqibatlariga: da’vogar tomonidan olinmay qolgan mulk va pul mablag‘lari; ko‘rilgan zararlar (shu jumladan boy berilgan foyda); da’vogar amaldagi qonun hujjatlari va shartnomaga muvofiq umid qilishga haqli bo‘lgan boshqa mulkiy huquqlar kiritilishi mumkin” deyiladi. Ya’ni, bunga ko‘ra, masalan, kredit tashkiloti yoki bank kredit shartnomasiga ko‘ra shartlashilgan mablag‘larni qarz oluvchiga taqdim etmasa, unda kredit tashkiloti yoki bank qarz oluvchiga yetkazilgan zararlarni to‘lab berishi kerak. Bunda zarar deganda, plenum qarori izoh bergani kabi Fuqarolik kodeksining 14-moddasida nazarda tutilgan zararning har ikki turi: haqiqiy zarar, shuningdek boy berilgan foyda ham kredit tashkilotidan undirib olinishi mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, kredit tashkiloti asosli vaziyatlarda, qonun yo‘l qo‘ygan hollarda kredit berishdan bosh tortishi mumkin. Ammo agar kredit tashkiloti kredit berishni asossiz rad etgan hollarda esa kredit shartnomasini tuzishga kredit tashkilotini majburlasa bo‘ladi. Fuqarolik kodeksining 377-moddasida fuqarolik kodeksi yoki boshqa qonunlarga muvofiq oferta (shartnoma loyihasi) yo‘llangan taraf uchun shartnoma tuzish majburiy bo‘lgan hollarda bu taraf oferta olingan kundan boshlab o‘ttiz kun mobaynida boshqa tarafga aksept to‘g‘risida yoki akseptdan bosh tortishi to‘g‘risida yoxud ofertani boshqa shartlarda akseptlashi to‘g‘risida (shartnoma loyihasiga kelishmovchiliklar bayonnomasi) bildirish yo‘llashi kerak. Agar ushbu Kodeksga yoki boshqa qonunlarga muvofiq shartnoma tuzishi majburiy bo‘lgan taraf uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi taraf uni shartnoma tuzishga majbur qilish talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli”[5]. Ushbu qoidani kredit berishdan bo‘yin tovlash holatida ham qo‘llash mumkin bo‘lib, agar kredit tashkiloti kredit berishni asossiz rad etayotgan bo‘lsa, sud tartibida da’vogar talabi bilan kredit shartnomasi sud orqali tuzilishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Buning ustiga, kredit berishdan asossiz bo‘yin tovlashning yana bir huquqiy oqibati bu zararlarni undirishda ko‘rinadi. 377-moddaning so‘nggi bandida belgilanganidek, shartnoma tuzishdan asossiz bo‘yin tovlayotgan taraf shu tufayli yetkazilgan zararlarni boshqa tarafga

[5] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1-qism) 21.12.1995

to‘lashi kerak.

Kredit olishdan bo‘yin tovlash masalasiga keladigan bo‘lsak, bunda nazarimizda, kredit oluvchiga nisbatan FK 377-modda nazarda tutuvchi majburiy tartibda shartnoma tuzdirish qoidasini qo‘llab bo‘lmaydi. Negaki, 377-modda qoidasi shartnomani tuzishga majbur bo‘lgan tarafga nisbatan qo‘llaniladi. Normada “Ushbu Kodeksga yoki boshqa qonunlarga muvofiq oferta (shartnoma loyihasi) yo‘llangan taraf uchun shartnoma tuzish majburiy bo‘lgan hollarda” degan jumla ishlatilinadi. Kredit munosabatlarida qarz oluvchi kredit shartnomasi tuzishga majbur bo‘lmaydi. Shuning uchun ham FKda qarz oluvchining kredit olishdan qisman yoki butunlay rad etishining huquqiy oqibatlari ko‘rsatilmagan. Shunga qaramay, qarz oluvchi kreditorni kredit unga berilishidan oldin ogohlantirishi kerak. Fuqarolik kodeksining sharhida bu qoidaga izoh berishda fuqarolik kodeksida bu vaziyatda huquqiy oqibatlar borasida ko‘rsatmalar yo‘qligi aytiladi. Lekin shunisi aniqki, kredit oluvchi kredit tashkilotini bu haqida kredit berilmasidan avval ogohlantirishi kerak. Buning ustiga 746-moddanining bu bandi agar shartnomada yoki qonunda boshqacha muddat belgilanmagan holatda mazkur qoida qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ya’ni “shartnoma erkinligi” tamoyilidan kelib chiqadigan bo‘lsak, muddat masalasini dispozitiv qoida deyish mumkin.

Bundan tashqari, “shartnomalar erkinligi” prinsipi nima uchun biz kredit tashkilotiga nisbatan FK 377-modda qoidalarini qo‘llay olamiz-u, kredit oluvchiga nisbatan buni qo‘llay olamsligimiz uchun ham yaxshigina “dalil” bo‘lishi mumkin. Negaki, kredit tashkilotlari iste’molchiga oldindan belgilangan standartlar va formulyativ shartlar asosida tuzilgan shartnomalarni taklif etadi. Bu esa kredit shartnomalari qo‘shilish shartnomalari ekanligidan darak beradi. Qo‘shilish shartnomalari esa ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, tovar, ish va xizmatlarni taklif etuvchi uchun, ya’ni bizning vaziyatimizda kredit tashkiloti yoki banklar uchun majburiy hisoblanadi. Kredit oluvchi esa iste’molchi sifatida taklif etilayotgan tovar, ish, xizmatdan yo foydalanadi yoki foydalanishni rad etadi. Shu boisdan ham kredit tashkilotini shartnoma tuzishga majbur etish “shartnomalar erkinligi” prinsipiga zid bo‘lmagan holda, iste’molchini bunday qilishga majburlash “shartnomalar erkinligi” prinsipini buzilishiga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ham kredit oluvchining kredit tashkilotidan kredit olishni butunlay yoki qisman rad etishning huquqiy oqibatlari borasida aniq bir qoida mavjud emas, bizning fikrimizcha.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kredit tashkilotlari va banklar tomonidan kredit berishni qisman yoki butunlay rad etish uchun qonun hujjatlarida hamda kredit tashkiloti yoki banklarning ichki siyosatidan kelib chiqish mumkin bo‘lib, bunda asossiz rad etganlik huquqiy oqibatlarini yuqorida tahlil qilib o‘tdik. Kredit beruvchi va kredit oluvchining kreditni berish yoki uni olishni qisman yoki butunlay rad etishi bir moddada nazarda tutilgan bo‘lsada, ular yuzaga kelish asoslari va kelib chiqadigan huquqiy oqibatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1-qism) 21.12.1995
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (2-qism) 29.08.1996
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi Qonuni. 11.08.2011
4. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’mol krediti to‘g‘risida”gi Qonuni. 06.05.2006.
5.Fuqarolik huquqi. Q.II/M.Abdusalomov, X.Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. – Toshkent: Adolat, 2007. 882 bet.
6. Pul, kredit va banklar. Darslik. (Sh.Abdullayev) Toshkent, Toshkent Moliya instituti, 2003. 318 bet.
7. Absamatov A.E. (2022). KREDITNING MOHIYATI VA ZARURLIGI. Экономика и социум, (12-1 (103)), 36-39.